



Organization of medical institutions and their management in the Fergana Region (end of XIX century – beginning of XX century)

Azizbek BADALOV¹

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2023
Received in revised form
15 July 2023
Accepted 25 July 2023
Available online
15 August 2023

Keywords:

Turkestan,
Ferghana region,
medical institution,
hospital,
administration,
colonialism.

ABSTRACT

At the end of the 19th century – the beginning of the 20th century European medical institutions, paramedical outpatient clinics, women’s hospitals and their management were created on the territory of Turkestan, in particular in the Fergana region. In the article, based on the analysis of archival materials, periodicals and scientific literature, the activities and main problems of the first medical institutions are considered.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss6/S-pp33-40>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Farg’ona viloyatida tibbiy muassasalarning tashkil etilishi va ularning boshqaruvi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Turkiston,
Farg’ona viloyati,
tibbiy muassasa,
shifoxona,
boshqaruv,
mustamlakachilik.

Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o’lkasida, xususan, Farg’ona viloyatida yevropacha tibbiy muassasalar – feldsherlik ambulator shifoxonalari, xotin-qizlar uchun mo’ljallangan shifoxonalar tashkil etilishi va ularning boshqaruvi, dastlabki tibbiy muassasalar faoliyati va asosiy muammolari arxiv materiallari, davriy matbuot va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan.

¹ Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD), Senior Lecturer, Department of Theory of Civil Society, Andijan State University.

Организация медицинских учреждений и их управление в Ферганской области (конец XIX века – начало XX века)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Туркестан,
Ферганская область,
лечебное учреждение,
больница,
администрация,
колониализм.

В конце XIX века – начале XX века на территории Туркестана, в частности в Ферганской области, происходит создание европейских лечебных учреждений – фельдшерских амбулаторий, женских больниц и их управление. В статье на основе анализа архивных материалов, периодической печати и научной литературы рассмотрена деятельность и основные проблемы первых лечебных учреждений.

XIX asrning ikkinchi yarmi O'rta Osiyo xalqlari tarixida keskin va fojiali burilish yasagan, murakkab va ziddiyatli davr bo'ldi. Rossiya imperiyasining harbiy yurishlari oqibatida o'lkada mustamlakachilikka asoslangan yangi huquqiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi shakllantirildi.

1876-yilda Qo'qon xonligining tugatilishi munosabati bilan markazi Yangi Marg'ilon (keyinchalik Skobelev, hozirgi Farg'ona) shahri bo'lgan Farg'ona viloyati tashkil qilindi. Uning hududida Andijon, Namangan, Qo'qon, Marg'ilon, O'sh uyezdlari bo'lib, ularning ma'muriyati Turkiston general-gubernatori tomonidan tayinlangan harbiy gubernatorlar tomonidan boshqarilar edi. Hududni tashkillashtirish tizimida eng quyi bo'g'in – bo'lis (volost) hisoblanardi [1. B. 42–44].

XIX asrning 60-yillaridan boshlab Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasida joylashtirilgan harbiy qismlar va yangi tashkil qilingan aholi punktlarida tibbiy holatni nazorat qilish, mahalliy aholi o'rtasida epidemik kasalliklarga qarshi kurashish va oldini olish maqsadida yevropacha tibbiyot muassasalari tashkil qilina boshladi. 1876-yildan boshlab Farg'ona viloyatining yirik shaharlarida rusiyzabon va mahalliy aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish maqsadida ambulator shifoxonalar ochish masalasi ko'tarila boshladi. Buning natijasida, 1882-yilga kelib Farg'ona viloyatida 7 ta, jumladan, Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona) 20 o'rin, Marg'ilon 15 o'rin, Qo'qonda 20 o'rin, Chustda 5 o'rin, Namanganda 10 o'rin, Andijonda 15 o'rin va O'shda 5 o'rin, jami 90 o'ringa ega bo'lgan ambulator shifoxonalar faoliyat ko'rsatishni boshlagan [2].

Dastlabki yillarda ushbu ambulator shifoxonalar ijaraga olingan, shaharlarning aholi qatnoviga qulay markaziy ko'chalaridagi xonadonlarda joylashgan. Misol uchun, O'sh shahridagi ambulator shifoxonasi uchun shaharning Ye kvartali №11 uyda joylashgan xonadon ijaraga olingan. O'sh uyezdi boshlig'i Ionov va xonadon sohibi, podpolkovnik Nosovlar o'rtasida 400 rubl evaziga ushbu xonadonni 1882-yil 20-sentabrdan 1883-yil 20-sentabriga qadar O'sh ambulator shifoxonasi uchun ijaraga berish to'g'risida shartnoma imzolangan [3]. Keyinchalik viloyatdagi barcha uyezdlarda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan ambulatoriyalar uchun maxsus binolar qurish boshlangan. Qurilish ishlari tender asosida tashkil qilinib, mahalliy tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilgan. Chunonchi, Turkiston general-gubernatorligi Devonxonasining 1885-yil 16-avgustdagi ma'lumotnomasida yozilishicha, Namangan shahrida shifoxona qurilishi uchun marg'ilonlik tadbirkor Karim Shamsutdinov bilan 12500 rubllik shartnoma tuzilgan [4].

Shifoxonalar chet davlatlardan keltirilgan tibbiy asbob-anjom va jihozlar bilan ta'minlangan. Jumladan, 1877-yilda Sankt Peterburg shahridagi tibbiy asbob-anjomlar do'konidan Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlari uchun jami 14 turdagi 99 adad tibbiyot anjomlari sotib olingan va ular mustahkam qutilarda keltirilib, uyezd shifokorlariga taqsimlab berilgan [5].

1886-yil 12-iyunda tasdiqlangan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizomiga asosan 14 ta uyezd uyezd shifokori lavozimi ta'sis etilishi mintaqada sog'liqni saqlash tizimi shakllanishining asosiy bosqichlaridan biri bo'ldi [6. B. 996]. Nizomga asosan, uyezd shifokoriga 1500 rubl, uning tarjimoniga 180 rubl va uyezd feldsheriga 360 rubl yillik ish haqi belgilandi. Bundan tashqari, 1906-yilgacha uyezd shifokoriga uning sud-tibbiyot ekspertizalarini o'tkazish uchun qilinadigan safar xarajatlari uchun yillik 300 rubl qo'shimcha ish haqi to'langan [7].

1886-yil 30-sentabrda "Farg'ona viloyati shahar kasalxonalari to'g'risida" gi Nizom qabul qilinib, Qo'qon, Andijon, Namangan, O'sh va Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona) shahar kasalxonalari hamda Marg'ilon va Chust shaharlarida ambulatoriyalar tashkil etilgan[8]. Bu kasalxonalarda o'tkir va surunkali kasalliklarga chalingan mahalliy va yevropa millatiga mansub aholi qabul qilinib, ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va tibbiy maslahat hamda dori-darmonlar berish bepul tarzda amalga oshirilgan. Kasalxonani boshqarish, bemorlarni qabul qilish va ro'yxatga olish kasalxona shifokori (uyezd shifokori)ning majburiyati hisoblangan. Shifokor tibbiyot bo'limini boshqarish bilan birga feldsherlikka qiziqqan layoqatli mahalliy yoshlarda tibbiy malaka shakllantirish mas'uliyatini ham o'z zimmasiga olgan.

Shahar kasalxonalari nizomiga ko'ra, kasalxona xo'jalik bo'limi uyezd boshlig'i raisligida, uyezd vrachi va uyezd boshqarmasining bir nafar rahbar xodimidan tashkil topgan xo'jalik qo'mitasi tomonidan boshqarilgan. Kasalxona faoliyati nozir orqali Farg'ona viloyati shifokori va viloyat ma'muriyati tomonidan nazorat qilib borilgan. Nozir uyezd boshlig'i tomonidan tayinlangan. Feldsher esa, uyezd vrachi tomonidan tanlab olingan va uyezd boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlangan. Nozir va feldsherlar kasalxona atrofida yashashi uchun turar-joyga ega bo'lishi kerakligi belgilangan. Shahar kasalxonalarining shtat birliklari va moddiy ta'minoti kasalxona joylashgan uyezd aholisining soni va uyezd xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilangan. Jumladan, Qo'qon va Namangan shaharlarida kasalxona 20 o'ringa ega bo'lsa, Andijon va O'sh shaharlarida 15 o'ringa ega bo'lgan. Yangi Marg'ilon shahri kasalxonasi esa erkaklar uchun 20 o'ringa, ayollar uchun 15 o'ringa mo'ljallangan. Ushbu shifoxonaning shtat birligi 5 kishini tashkil etib, moddiy ta'minoti bir yil uchun 7370 rubl etib belgilangan [9].

Ilova № 1

Farg'ona oblastida tashkil qilingan dastlabki shahar kasalxonalarining shtat birligi va moddiy ta'minoti to'g'risida ma'lumot:

Shtat nomlari va sarf-xarajat turlari	Xarajat summasi, jumladan:					
	Soni	Qo'qon va Namangan	Soni	Andijon va O'sh	Soni	Yangi Marg'ilon
Har bir bemorning kunlik ta'minoti uchun sarf etiladigan 40 tiyinlik xarajat	-	2920 rubl	-	2190 rubl	-	5110 rubl
Feldsher uchun	1	500 rubl	1	500 rubl	1	500 rubl

Ikkinchi feldsher uchun	-	-	-	-	1	400 rubl
Nozir uchun	-	300 rubl	-	300 rubl	-	400 rubl
Feldsher-o'quvchi (tibbiy yordamchi) uchun	1	120 rubl	1	120 rubl	2	204 rubl
Xizmatkor uchun (har biri uchun 144 rubldan)	2	144 rubl	2	144 rubl	4 (bir nafar ayol)	576 rubl
Oshpaz uchun	1	180 rubl	1	180 rubl	1	180 rubl
JAMI:	5	4308 rubl	5	3578 rubl	9	7370 rubl

Marg'ilon va Chust uyezdlaridagi ambulatoriyalar bemorlarga tibbiy maslahat berish va dori-darmon bilan ta'minlash, shoshilinch holatlarda erkak va ayol bemorlarni qabul qilish maqsadida tashkil qilingan hamda tibbiy xizmat bepul tarzda amalga oshirilgan. Muassasada tibbiy xizmat ko'rsatish hamda xo'jalik ishlarini boshqarish uyezd vrachlari zimmasiga yuklatilgan. Muassasa faoliyatini nazorat qilish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal etish Farg'ona viloyati gubernatori zimmasiga yuklatilgan. Bemorlarni kunlik qabul qilish va muassasa xo'jalik ishlarini yuritish feldsher tomonidan olib borilgan. Feldsher uyezd vrachi tomonidan tanlab olingan hamda uyezd boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlangan. U tibbiy ko'rik muassasasida turar joyga ega bo'lgan va shu yerda istiqomat qilgan. Uyezd vrachi bemorlarni qabul qilish uchun kamida ikki marta, asosan, bozor kunlarida tibbiy ko'rik muassasasiga kelib turgan. Ushbu tibbiyot muassasalari uchta doimiy o'ringa ega bo'lib, har bir bemorning ta'minoti uchun kunlik xarajat 40 tiyinni tashkil qilgan. Bemorlarning ta'minoti (shu jumladan, jihozlarni ta'mirlash, oziq-ovqat, kiyim-kechak, yoritish va isitish ishlari) uchun bir yilda jami 468 rubl mablag' ajratilgan. Feldsher yillik 500 rubl, xizmatchi-oshpaz esa 180 rubl maosh bilan ta'minlangan [10].

XIX asrning 80-yillaridan mahalliy aholi mentalitetidan kelib chiqqan holda, ayollar va bolalar uchun mo'ljallangan shifoxonalar ochila boshlagan. Farg'ona viloyatida ayollar va bolalar uchun mo'ljallangan birinchi shifoxona 1887-yil 7-iyunda Turkiston general-gubernatorining №67 sonli buyrug'iga asosan Qo'qon shahrida ochilgan [11]. Dastlab shifoxona o'z faoliyatini ijaraga olingan binoda olib borgan. 1889-yil 29-mayda shifoxona mudirasi Mariya Shishova shahar markazidagi boshqa ko'chalarining biridan yer sotib olish va yangi bino qurishni so'rab murojaat qilgan. Kasalxona joylashgan binoning mahalliy aholi uchun noqulayligi, sanitar sharoitlari yomonligi, xususan, shimol tomonidan ko'mir bozori bilan tutashganligi hamda bozorga ot va tuyalarning doimiy kirib-chiqishi jarayonida bu yerning haddan tashqari ifloslanib ketishi bunga sabab sifatida ko'rsatilgan. Murojaatnomaga asosan, shifoxona uchun Qo'qondagi markaziy ko'chalarning biridan mahalliy aholiga tegishli 720 kv. sarjin yerni 1003 rublga sotib olinib, 54 rubl, 42 tiyinga oldi-sotdi hujjatlari rasmiylashtirilgan [12].

1887-yil 12-sentabrda Turkiston general-gubernatorining №99-sonli buyrug'i bilan Andijonda ayollar va bolalar shifoxonasini ochishga ruxsat berilgan [13]. Shifoxona uchun Andijon shahrida maxsus bino bo'lmaganligi uchun mahalliy tadbirkor Shamsiddin Xo'ja egaligidagi uy ijaraga olingan. Shamsiddin Xo'ja oldindan 700 rubl va har yili 300 rubl ijara haqi to'lash sharti bilan 1888-yil bahoridan shifoxona uchun 3 ta xona, alohida vannaxonaga ega bo'lgan yangi bino qurib berishni taklif qilgan. Turkiston general-gubernatori tomonidan bino qurilishi uchun berilgan taklif ijobiy baholanib, mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan ko'rsatilgan summani ajratish uchun ruxsat berilgan. Turkiston Okrug Harbiy-tibbiyot inspektori I.P. Suvorovning 1888-yil 17-avgustidagi murojaatnomasida ko'rsatishicha, shifoxona 1888-yil 8-fevraldan o'z faoliyatini boshlagan.

1889-yil 25-aprelda Farg‘ona viloyati gubernatori Namangan shahrida 15 mingdan ortiq ayollar uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati mavjud emasligi tufayli Namangan shahar byudjeti mablag‘lari hisobidan Andijon va Qo‘qon shaharlaridagi kabi ayollar va bolalar uchun shifoxona ochishga ruxsat so‘rab, Turkiston general-gubernatoriga murojaatnoma yo‘llaydi. 1889-yil 30-mayda Namanganda mahalliy xotin-qizlar va bolalar shifoxonasini ochish uchun ruxsat berilib, 1889-yil 23-sentabrda ish boshlaydi [14. V. 35].

Marg‘ilon uyezdi ma‘muriyati va faollarining tashabbusi hamda sa‘y-harakatlari asosida Turkiston general-gubernatorligi tomonidan 1890-yil 16-iyunda ayollar soni 16 mingdan ortiq bo‘lgan Eski Marg‘ilon shahrida ham ayollar va bolalar shifoxonasini ochishga ruxsat berilgan hamda shifoxonaning Nizomi tasdiqlangan. Shifoxona uchun Eski Marg‘ilon shahri Mashat qismining Chor chinor mahallasida yashovchi Xo‘ja Normuhammad Muhammadrahimovning xonadoni ijaraga olingan. 1890-yil 1-noyabrda Marg‘ilon uyezdi boshlig‘i Tomich va xonadon egasi o‘rtasida shartnoma tuzilib, xom g‘ishtdan qilingan 4 xona uy, maktab sifatida foydalanib kelingan bino bilan birgalikda ijara asosida shifoxonaga o‘tkazilgan. Ijara haqi yiliga 200 rubldan, besh yilga 1000 rublni tashkil qilgan. Shifoxona binosini ta‘mirlash sarf-xarajatlari shahar byudjeti mablag‘laridan qoplangan [15].

Yuqoridagi shifoxonalarga tibbiy yordam so‘rab murojaat qiluvchi ayollar va bolalarga tibbiy maslahat, dori-darmon va boshqa ashyolar bepul tarzda berilgan. Shifoxonaning tibbiyot va xo‘jalik bo‘limlarini boshqarish Okrug harbiy-tibbiyot inspektori tomonidan tanlab olingan ayol-shifokorlar zimmasiga yuklatilgan. Ular bemorlarni qabul qilish uchun har kuni ertalab soat 9 dan 14 gacha shifoxonada bo‘lishgan. Shifoxonalarda bir nafardan fel’dsher-ayollar ham ishlagan. Ular bemorlarni qabul qilish, hujjat ishlarini yuritish va shifokor-ayol tomonidan berilgan boshqa majburiyatlarni bajargan hamda tibbiy yordam uchun bemorlarning uylariga tashrif jarayonida shifokor-ayolga hamrohlik qilishgan.

Shifoxonalarda tibbiyot xodimlaridan tashqari bir nafardan tarjimon ayol, xizmatkor ayol va hovlibonlar ham ishlaganlar. Ularni ishga yollash va ishdan bo‘shatish uyezd boshlig‘i tavsiyasiga ko‘ra, shifokor-ayol tomonidan hal etilgan. Xizmatkor ayol va hovlibonlar rus tilidan xabardor bo‘lishi va shifoxona ishlarida o‘zaro bir-birlariga yordam berishi shart bo‘lgan. Shifoxona ta‘minoti va xodimlarning maoshlari uyezdlar yoki shahar byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplangan. Turkiston general-gubernatori tomonidan 1892-yil 30-iyunda tasdiqlangan “Eski Marg‘ilon, Qo‘qon, Andijon va Namangan shaharlarida 10 ta doimiy yotoq joyiga ega bo‘lgan mahalliy ayollar va bolalar shifoxonalarining shtat birliklari to‘g‘risida” gi qarorga ko‘ra, shifoxonada 3 nafar tibbiyot xodimi va 6 nafar yordamchi xodimlar shtat birliklari belgilangan. Shifoxonaning yillik moddiy ta‘minoti uchun 6434 rubl mablag‘ yo‘naltirilgan[16].

Ilova № 2

Farg‘ona oblastida ochilgan dastlabki ayollar va bolalar shifoxonalarining shtat birligi va moddiy ta‘minoti:

Shtat nomlari va sarf-xarajat turlari	Shtat soni	Yillik ta‘minoti (rubl)	Jami (rubl)
Shifokor-ayol, shifoxona mudirasi	1	1100	1100
Uning safar xarajatlari uchun		300	300

Feldsher-ayol	2	480	960
Uning safar xarajatlari uchun		180	180
Tarjimon-ayol	1	300	300
Nazoratchi ayol (xo'jalik bo'limini boshqaradi)	1	300	300
Xizmatkor-ayol	2	120	240
Oshpaz	1	144	144
Hovlibon	1	120	120
Dori-darmonlar uchun			400
Ashyolar katalogidagi narsalar uchun			180
Kanselyariya ashyolari uchun			150
Kasalxona binosi ijarasi uchun (xizmatkor uchun yashash joyi bilan birgalikda)			600
Har bir bemor ta'minoti uchun kunlik 40 tiyin, (shuningdek, bu summa hisobiga bemorlarni ovqatlantirish, isitish, yoritish va boshqa kichik xarajatlar ham kirgan)			1460
JAMI:			6434

Shunday qilib, XX asrning boshlariga kelib, 1900-yilda Farg'ona viloyatida doimiy yotoq joyga ega bo'lgan jami 11 ta tibbiyot muassasalari aholiga tibbiy xizmat ko'rsatgan. Ular, 5 ta shahar kasalxonalari, 4 ta ayollar va bolalar shifoxonalari hamda 2 ta tibbiy ko'rik muassasalari bo'lib, barchasi shaharlarda joylashgan hamda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan ta'minlangan. Bundan tashqari viloyatda 11 ta, jumladan, Marg'ilon uyezdida 3 ta, Qo'qonda 2 ta, Andijonda 3 ta, Namanganda 2 ta, O'shda esa 1 ta ambulatoriya punktlari faoliyat ko'rsatgan. Bu yilda ushbu tibbiy muassasalariga tibbiy yordam so'rab 92674 nafar aholi murojaat qilgan bo'lsa, ularning 193 nafari turli og'ir kasalliklar tufayli vafot etgan [17. B. 109–111]. Yil davomida dam olish kunlarisiz hisoblaganda bir sutkada viloyat bo'yicha o'rtacha 254 nafar bemor qabul qilingan.

Umuman, o'lka aholisi yangicha tibbiy muassasalarni asta-sekinlik bilan qabul qila boshlagan. Bunday muassasalar mahalliy aholi uchun tamoman yangilik bo'lib, aholining yangi tibbiy bilimlarni qabul qilishida muayyan qiyinchiliklar yuz bergan [18. B. 275]. Lekin, vaqt o'tishi bilan zamonaviy tibbiyotning foydalarini bilgan mahalliy aholi yevropalik shifokorlarning faoliyatiga qiziq boshlagan hamda ularga tibbiy yordam so'rab murojaat qiluvchilar soni yildan yilga ko'payib borgan. 1881-yilda Turkiston o'lkasida mahalliy aholi 2,300,000 nafar kishini tashkil qilgan holda tibbiyot muassasalariga murojaat etuvchilar soni 18500 kishini tashkil etib, bu umumiy aholining 1 foizini ham tashkil qilmas edi. Lekin shunga qaramay, Farg'ona viloyati bo'yicha bu ko'rsatkich 1882-yilda 1877-yilga nisbatan 2 baravar ortgan edi [19. B. 160]. Farg'ona viloyatida mahalliy aholining yevropa tibbiyotiga murojaatlari sonining bu sur'atda oshishining asosiy sababi viloyatning o'ziga xos shart-sharoitiga bog'liq edi. Turkiston viloyatining boshqa viloyatlariga nisbatan kichikroq hududni egallagan Farg'ona viloyati aholisining o'ta zich joylashganligi, uyezdlar markazlarining bir-biridan unchalik uzoq emasligi aholiga yevropa tibbiyotining afzalliklarini yaqindan bilish va shifokorlar yordamidan foydalanish imkonini bergan edi.

Shunga qaramay, tibbiyot muassasalari shifokorlarining xulosalariga ko'ra, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish qoniqarli darajada tashkil etilmagan. Andijon shahar shifokori Malining 1901-yil 22-sentabrda Farg'ona viloyati shifokori Popovga yuborgan bildirishnomasida Andijon uyezdida aholiga statsionar tibbiy xizmat ko'rsatish qoniqarli emasligi ta'kidlangan. Uning fikricha, shahar kasalxonasidagi 15 ta statsionar yotoq joyi

umuman yetarli bo'lmagan. Kasalxonaga statsionar davolanish maqsadida murojaat qiluvchilarning soni yildan yilga ortib borayotgani, xususan, 1899-yilda bir sutkada o'rtacha 22 nafar, 1900-yilda esa, o'rtacha 28 nafar bemorni tashkil etgani qayd etgan. Shuningdek, 400 ming kishilik uyezd aholisi yevropa millatiga mansub shifokorlarning tibbiy yordamiga o'rganib borayotgani, temir yo'l qurilishi va zavodlar sonining ortishi bilan ishchilarning kirib kelayotgani ham sabab o'rnida keltirgan. Shu sababdan kelib chiqib, shahar kasalxonalarida yotoq joyini 35 taga oshirish maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan. Bildirishnomaning so'ngida Andijonda yashovchi bir mo'ysafidning shikoyatini keltirib o'tgan. Unga ko'ra, boshdan qon ketishi sababi bilan murojaat qilgan bir bemor joy yo'qligi uchun kasalxonaga qabul qilinmagan va oradan yetti kun o'tib vafot etgan. O'sha kuni shahar kasalxonasida 32 nafar statsionar tartibda davolanayotgan bemor bo'lgan. Shunday salbiy oqibatlarni bartaraf etish uchun shahar kasalxonalarida statsionar yotoq joylarini ko'paytirish masalasini kechiktirmay, zudlik bilan hal etish kerakligini ta'kidlagan [20].

Bundan ko'rinadiki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mahalliy aholiga tibbiy yordam ko'rsatish borasida qilingan ishlar ijobiy ahamiyat kasb etgan holda, tashkil etilgan shifoxonalarning aholi nufusiga nisbatan kamligi, moliyaviy tomondan og'ir ahvolda ekanligi, tibbiyot xodimlarining yetishmasligi va ularning mahalliy tillarni bilmasligi kabi omillar bu boradagi ishlarning rivojlanishini qiyinlashtirar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.Abduraximova, F.Ergashev. Turkistonda Chor mustamlaka tizimi. – Toshkent, “Akademiya”, 2002. – 240 b.
2. O'zbekiston Milliy arxivi, I.19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 908-ish, 28-b.
3. O'zbekiston Milliy arxivi, I.19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 28237-ish, 33-b.
4. O'zbekiston Milliy arxivi, I.1-jamg'arma, 16-ro'yxat, 1864-ish, 7-varaq.
5. O'zbekiston Milliy arxivi, I.19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 32107-ish, 26-29 varaqlar.
6. Shadmanova S.B., Badalov A.A. Activities of doctors in the Fergana Valley (late 19th – early 20th centuries) // *Academicia: An International Multidisciplinary research Journal*. Vol.10, Issue 10, October 2020.
7. Spectator. Медицинское дело в крае. Ташкентский курер. 1908. №18 // Туркестанский сборник. Т.478. – С. 109-110.
8. O'zbekiston Milliy arxivi, I.19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 28641-ish, 33-34 varaqlar.
9. O'zbekiston Milliy arxivi, I.19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 28641-ish, 34-36 varaqlar.
10. O'zbekiston Milliy arxivi, I.19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 28641-ish, 36-37-varaqlar.
11. O'zbekiston Milliy arxivi, I.1-jamg'arma, 16-ro'yxat, 2023-ish, 18,20-varaqlar.
12. O'zbekiston Milliy arxivi, I.19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 23933-ish, 8,9,11-varaqlar.
13. O'zbekiston Milliy arxivi, I.1-jamg'arma, 16-ro'yxat, 2065-ish, 1,9,13-varaqlar.
14. S.B.Shadmanova, Farg'ona vodiysi aholisiga tibbiy yordam ko'rsatilishi va undagi transformatsiya jarayonlari (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) // *Vodiynoma*, 2018. №2.
15. O'zbekiston Milliy arxivi, I.19-jamg'arma, 1-ro'yxat, 24096-ish, 3, 20, 21, 23-varaqlar.
16. O'zbekiston Milliy arxivi, I.1-jamg'arma, 16-ro'yxat, 2219-ish, 22-varaq.
17. Обзор Ферганской вилояти за 1901 год. – Г.Новый Маргелан. Типография Ферганского вилоятного Правления, 1894. – 88, [52] с.

18. Badalov A.A. “Ferghana medical society” and its activity (late XIX - early XX centuries) // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations. Special Issue – 2 (2021).

19. Отчет о состояний Туркестанского края, составленный Сенатором Тайного Советника Гирсом, командированным для ревизий края Высочайшему повелению. I. част. Администрация. – СПб, 1883. – 466 с.

20. O‘zbekiston Milliy arxivi, I.19-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 32650-ish, 30, 53-54-varaqlar